

**BUXORO SHAHRINING GAZLI SHOH KO'CHASI
YOQASIDA KO'P QAVATLI ZAMONAVIY UY-JOY
MAJMUASINI QURISH BO'YICHA ISHLAB CHIQLILGAN
ARXITEKTURAVIY LOYIHA YECHIMLARI.**

Muqimov A.A.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Ashurov SH.

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro shahrining Gazli shoh ko'chasi yoqasida foydalanishga yaroqsiz holatga kelgan 2 qavatli turar-joy binolarini bartaraf etish va ularning o'rnidan iqlimiy sharoitga mos ko'p qavatli zamonaviy uy-joylarni qurish bo'yicha tayyorlangan me'moriy loyiha yechimi taklifi to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Urbanizatsiya, subsidiya, bazalt, quyosh panel, siti, kompozitsiya, frontal, tipologiya, interyer, perspektiva

Azaldan Buxoroi Sharif sharqning gavhari bo'lib kelgan. Asrlar davomida shu zaminda qad ko'targan bebaho me'moriy obidalarining bugungi kungacha o'zining betakror me'moriy yechimlari bilan ajralib turishi, Buxoro me'morchilik maktabining serqirraligi bilan alohida o'z o'rniga ega ekanligi sababli barchaning diqqat e'tiborida bo'lib kelayotganligi fikrimizning dalilidir. Kasanachilik sohalarida ham kosiblar va hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan milliy buyumlarning respublikamizga tashrif buyurayotgan xorijiy fuqarolar hamda respublikamiz fuqarolari tomonidan katta qiziqish uyg'otayotganligini e'tirof etish joiz. Bugungi kunda respublikamizda qabul qilinayotgan hukumat qarorlari va ishlab chiqilayotgan me'yoriy normalarning o'ta dolzarbligi, rahbariyat tomonidan berilayotgan topshiriqlarning belgilangan muddatlarda bajarilishi natijasida oxirgi o'n yillikda qurilish sohasida yuqori natijalarga erishildi. Aholi sonining tez ko'payishi (urbanizatsiya) har yili 1 mln.ga oshishini inobatga olgan holda, barcha shahar va qishloq hududlarida o'rta va yuqori qavatli turar-joy binolari qurilishi natijasida respublika aholisining barcha qatlamdagi fuqarolari uchun uy-joyga bo'lgan talabni kamaytirishga erishilmoqda. Yangi turar-joy mavzellarini Buxoro shahri markazida va tumanlar markazlaridagi "siti"larning qurilishini bunga misol qilish mumkin.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda (subsidiya) asosida uy-joy mavzelari qurilishi barobarida ishlab chiqarish korxonalari hamda kommunikatsiya tarmoqlari qurilishi jadal amalga oshirilishi natijasida fuqarolarimizning avvalo uy-joy bilan va doimiy ish bilan ta'minlanib borayotganligini xalq, yurt ravnaqi yo'lidagi muhim omil ekanligi deb e'tirof etish joiz. Asrlar davomida shu zaminda qad ko'targan tarixiy obidalarining bugungi kungacha o'zining betakror me'moriy yechimlari bilan ajralib turishi hamda kosibu-hunarmandlar tomonidan ishlab chiqarilgan turli sohalar va yo'nalishlardagi jozibador buyumlarning fuqarolarimiz hamda xorijiy fuqarolar

tomonidan katta qiziqish uygʻotayotganligini eʼtirof etish joizdir. Buxoro shahrining Sharq-1 mavzesi Gazli shoh koʻchasi yoqasida oʻtgan asrning 60-yillarida qurilgan bugungi kunda foydalanishga yaroqsiz holga kelgan 2 qavatli 2 podyezdli hamda 2 qavatli 1podyezdli uy-joylarni hamda qisman yaroqsiz holga kelgan savdo va maishiy xizmat koʻrsatish shaxobchalarini bartaraf etish uchun hududning bosh rejasini ishlab chiqish, mazkur hududda koʻp qavatli uy-joylarni hamda jamoat binolarini loyihalash va qurish jarayonida binolarning tashqi yoki ichki devorlarini shuningdek, binolarning tom qismlarini bazalt tolali plitalar bilan qoplash orqali xonalar ichida doimiy normal havo haroratini saqlash, issiq va sovuq havo oqimlaridan asrash mumkinligi hamda binolar va inshootlar tom qismlariga quyosh panellarini oʻrnatish orqali elektr energiyasiga boʻlgan talabni yechish imkoniyatlari amalga oshirilishidir. Shuningdek, koʻp qavatli binolarning shahar hududida qurilishi bugungi kundagi aholining tez oʻsishi (urbanizatsiya)da uy-joyga boʻlgan talab va hudud meʼmoriy yechimlari shakllanishiga sabab boʻladi. Uy-joylar, bino va inshootlar loyiha-smetalarini buyurtmachi tashkilotlar tomonidan berilgan “loyiha topshiriqlari” asosida ishlab chiqish jarayonida loyihachi tomonidan qurilish hududining geologiyasini va iqlimiy sharoitlarini chuqur oʻrgangan holda loyiha gʻoyalarini amalga oshirilishi shart. Loyiha taklifi boʻyicha quyidagi 1-rasmda koʻp qavatli uy-joylar loyiha hududining situatsiya loyihasi Google dan olindi.




1-rasm. Gazli shoh koʻchasi yoqasida foydalanishga yaroqsiz holatga kelgan kam qavatli uy-joylar oʻrnidan koʻp qavatli uy-joylar mavzesini qurish hududi.

Mazkur tanlangan qurilish maydoni shimol va janubdan oʻrta qavatli uy-joylar bilan, sharq tomondan A-380 avtomobil yoʻli bilan gʻarb tomondan esa kam qavatli uy-joylar bilan chegaralangan. Asosiy yoʻlga parallel ravishda tanlangan ushbu mavzeni arxitekturaviy loyiha taklifi ilova qilingan. Quyida ilova qilinayotgan 2-rasmda esa koʻp qavatli uy-joylar tarxi koʻrsatilgan. 2-3 xonali uy-joylar tipologiyasi asosan umumiy xonani oshxona bilan birlashtirilgan holda hamda ota-ona uchun alohida sanitar tugun va choʻmilish xonasini ham

birlashtirilgan holda rejalashtirilgan. Xonalarga tabiiy yoritilganlik tushishi (insolyatsiya) meʼmoriy yechimlari shaharsozlik normalari talablaridan kelib chiqib

amalgam oshirilgan. Xonadonlarga “o‘tish joyi” da bolalar uchun har bir qavatda o‘ynash maydonchalari va katta yoshdagi kishilar uchun esa suhbat qilish joyi ajratilgan.



2-rasm. Ko‘p qavatli uy-joylarning takrorlanuvchi qavatlar tarxi.

Uy-joylarning 1-qavatida Savdo va maishiy xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini joylashtirish mumkin. Yerto‘la va yarim yerto‘la qismini esa savdo shaxobchalarining omborlari yoki avtomobillarni qo‘yish joyi sifatida loyihalash mumkin. 3-rasmdagi loyiha tarzlarida kvartalni shimol va janub tomondan hovli tarzidagi me‘moriy yechimga alohida e‘tibor qaratilgan. Ushbu loyiha taklifi orqali “Sharq-1 mavzesi”da qurilgan uy-joylar bilan uzviy bog‘lanishga ega kompozitsion yechim shakllanadi.



3-rasm. Uy-joylarning frontal kompozitsion panorama ko‘rinishidagi fasadlari.

Massivdan A-380 avtomobil yo‘ligacha manzarali daraxtlardan ko‘kalamzor (eko) hududni shaharsozlik normalari asosida barpo etish 4-rasmda loyiha



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

perspektivasida ko'rsatilgan.

Uy-joylarning 4-rasmdagi panorama ko'rinishidagi perspektivasida asosan zamonaviy arxitektura elementlarini qo'llash orqali me'moriy yechimga ega bo'lgan to'liq loyiha majuasi shakllanganligini ko'ramiz. Ushbu loyiha taklifi yechimida ko'p qavatli uy-joylarning pastki 1-2 qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalarini joylashtirish hamda ofislarni rejalashtirish orqali aholi qatlamining ma'lum darajada ish bilan bandligini ta'minlashga erishish imkoni yaratiladi.



4-rasm. Turar-joy mavzesining A-380 avtomobil yo'liga parallel holatdagi perspektiv ko'rinish.

Bugungi kunda xonadonlarning umumiy xonalari ichki jihozlanishi (interyeri)ni quyidagi 5-rasmdagi ko'rinish shaklida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



Uy-joy binolari qurilishini g'isht materialidan tashqari gazoblok, penoblok, penopolistrol bloklar bilan amalga oshirish va ustki qismidan poydevor perimetri bo'ylab sokol profillarni dyubel yordamida qotirib chiqish hamda tabiiy tog' bazalt toshlaridan

tayyorlangan bazalt tolali markasi PPJ-160, qalinligi 50 mm GOST 9573-2012 bo'yicha 1000x600x50 mm mineral plitalarni tashqi devorlarga yopishtirib chiqilishi zarur. Xuddi shuningdek, tabiiy tog' toshi kvars toshlaridan tayyorlanadigan kvars tolali (ISOVER) – Izover mineral plitalarni ham ichki yoki tashqi devorlarga qoplashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan ketma -ketlik asosida ish jarayonlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Izover mineral plitaning 1 dona o'lchami 1000x600x50 mm yoki 1000x600x100mm ni, issiqlikni saqlashi $\lambda = 0,034 \text{ V/(mK)}$, 5 dona plita kesimidagi og'irligi 6 kg ni, hajmi 0,3m³ ni, ishlash muddati esa 50 yilni tashkil etadi. Xonalarni bir-biridan ajratib turuvchi gipsokarton pardadevorlar oraliqlariga mineral vata materiallarini qo'llashning afzalligi shundaki, tovush o'tkazuvchanlikning keskin pasayishini hamda issiqlikning saqlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonov, F. B. (2021). STUDYING THE POSSIBILITIES OF CONTINUOUS PRODUCTION OF REINFORCED CONCRETE STRUCTURES DURING THE YEAR. *Innovative Technologica: Methodical Research Journal*, 2, 86-92
2. Тожиёв, И. И., & Илхомов, Ж. И. (2024). ҚУРИЛИШ МАТЕРИАЛЛАРИНИ ЁДГОРЛИКЛАРНИ БАРПО ЭТИШДАГИ ЎРНИ. *Modern education and development*, 13(2), 124-128.
3. Тожиёв, И. И., & Илхомов, Ж. И. (2024). АБДУЛАЗИЗХОН МАДРАСАСИНИНГ ТЕХНИК ҲОЛАТИ. *Modern education and development*, 13(2), 129-134.
4. Vakhitov, M. M., & Yadgarova, G. G. (2024, January). Reinforcement of buildings of general educational institutions in seismic conditions of Bukhara Region. In *AIP Conference Proceedings* (Vol. 2969, No. 1). AIP Publishing.
5. Shamsiyeva, N. (2022). FUNDAMENTALS OF MODERN TEACHING METHODS OF TEACHING THE SCIENCE OF SOIL MECHANICS, SOIL AND FOUNDATIONS. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 328-331.
6. Bafoevich, U. F., Axrorovich, Q. H., & G'afforovich, Y. Y. (2024). HAVO HARORATI VA NAMLIGINING O 'ZGARUVCHAN SHAROITIDA OCHIQ OMBORLARDA SAQLANAYOTGAN ARRALANGAN YOG 'OCH MATERIALLARINING DEFORMATSIYASI. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology* (2995-486X), 235-237.
7. Bafoevich, U. F., Axrorovich, Q. H., & G'afforovich, Y. Y. (2024). OCHIQ MAYDONLARDA SAQLANADIGAN ARRALANGAN YOG 'OCH MATERIALINING QURIB YOKI SHISHIB DEFORMATSIYALANISH KO 'RSATKICHLARINI HAVO HARORATI VA NISBIY NAMLIGINING O 'ZGARISHIGA BOG 'LIQLIKDA O 'RGANISH. *Innovative: International Multidisciplinary Journal of Applied Technology* (2995-486X), 238-242.
8. A.S.Uralov, A.Raximov, B.Saidova. "Arxitekturaviy kompozitsiya va loyihalash asoslari". O'quv qo'llanma. Samarqand sh. SamDAQI nashriyoti 2004 y. 196 bet
9. X.Po'latov, P.Zoxidov va boshqalar. Arxitekturaviy kompozitsiya asoslari. Darslik. Toshkent sh. "Talqin" nashriyoti 2005y. 96 bet